



КАЗАНСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБАЙ



«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI, MADANIYATI»

MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA

TOSHKENT - 2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»**

**MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

TOSHKENT - 2025



Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida «Turkiy xalqlarning ma'naviy integratsiyasi: tili, adabiyoti, madaniyati» II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Maqolalarda turkiy tillarning rivoji va o'zaro o'xshashliklarini, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o'rganish; madaniy aloqalarni zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish; tarjima va adabiy almashinuv orqali xalqaro miqyosda muloqotni kuchaytirish; raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha taniqli turkiyshunos olimlar, metodistlar, o'qituvchilar hamda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

G.Asilova – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

G.Norimova – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

Tahrir hay'ati:

S.Muhamedova, S.Qambarova, O.Turaqulova,
Y.Shirnova, M.Yo'ldosheva.

Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2025-yil 2-iyundagi 10-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.



ONA TILINI O'QITISHDA INTERFAOL DASTURLAR VA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISH

Komilov Xusanboy Bahodir o'g'li

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti talabasi

komilov0715tsull@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada ona tilini o'qitishda multimedia vositalari va interfaol dasturlarning ahamiyati, ularning dars jaroyonidagi ta'siri va samaradorlik darajasi 10-sinf "Ona tili" darsligida aks etgan "Muhabbat nima?" nutqiy mavzusini o'qitish orqali yoritib berilgan. Sun'iy intellekt va multimedia vositalarining fanga tatbiq etilishi, ularning ta'lim sohasidagi foydalari, ularning imkoniyat darajalari shuningdek, ta'lim jarayonida ulardan qanday foydalanish haqida nazariy va amaliy bilimlar aks etgan.

Kalit so'zlar: *sun'iy intellekt, raqamli texnologiyalar, multimedia, videolavhalar, grafik tasvirlar, ko'rib tushunish.*

Аннотация. В статье отражено значение мультимедийных средств и интерактивных программ в обучении родному языку, их влияние на ход урока и уровень эффективности в учебнике "Родной язык" 10 класса "Что такое любовь?" тема речи освещается через обучение. Отражены теоретические и практические знания о применении искусственного интеллекта и мультимедийных инструментов в науке, их польза в сфере образования, уровни их возможностей, а также о том, как их использовать в образовательном процессе.

Ключевые слова: *искусственный интеллект, цифровые технологии, мультимедиа, видео, графические изображения, понимание просмотра.*

Annotation. In the article, the importance of multimedia tools and interactive programs in teaching the native language, their influence in the lesson structure and the level of efficiency is reflected in the textbook "Native language" of the 10th grade "What Is Love?" was brought to light by teaching the topic of discourse. Theoretical and practical knowledge of the application of artificial intelligence and multimedia tools to science, their benefits in the field of education, their degrees of opportunity are also reflected in how to use them in the educational process.

Keywords: *artificial intelligence, digital technology, multimedia, videos, graphic images, review understanding.*

Bugungi zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning ta'lim olish jarayonlari ham tubdan o'zgarib bormoqda. Yosh avlodga faqatgina darslik va qo'llanmalardan foydalanib dars berish ularning o'qish, eng muhimi uqib olish jarayonining samaradorligini pasaytirmoqda. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqqan holda dars jarayonlarida raqamli texnologiyalar va multimedia vositalaridan keng foydalanish, ularning imkoniyatlarini qo'llagan holda dars jarayonini tashkil etish jadallashmoqda. Nafaqat boshqa fanlarni, jumladan, ona tili fanini o'qitishda ham ushbu vositalar keng ko'lamda qo'llanmoqda.


Ko'pgina pedagog olimlarning fikricha, multimediali ta'lim muhiti o'rganishni osonlashtiradi va oshiradi. Kompyuter muhitida multimedia texnologiyalari bilan boyitilgan real yoki virtual tasvirlar, matnlar, tovushlar, grafiklar va rasmlar malakali ta'lim dasturlarini tayyorlashga yordam beradi.



Grafika, video, animatsiya va ovoz kabi turli xil vositalar birgalikda taqdim etilganda o'rganish muhitida farqlash orqali o'rganishni osonlashtiradi.

Kuzatishlar natijasida olimlar multimedia vositalardan foydalanish dars jarayonining samaradorligini oshirishini takrorlashadi. Chunki o'quvchi axborotni ham ko'rib, ham eshitib qabul qilganda, ma'lumotning xotirada saqlanib qolishi 75–80%ni tashkil etishi mutaxassislar tomonidan aniqlangan. [1:201] Albatta, ushbu vositalarini ta'lim jarayoniga tatbiq etish o'qituvchidan mediasavodxonlikni talab qiladi. Bunga erishgan o'qituvchilar darslarida hech qiyinchiliksiz turli xil grafikalar, video va diagrammalardan foydalana oladilar. Bundan tashqari o'zi qo'llamoqchi bo'lgan metodlari ham "VARK" texnologiyasiga asoslangan bo'lsa, dars jarayonini qiynalmay olib boradilar. O'qituvchi ushbu vositalardan foydalanganda o'quvchilarning ko'pgina sezgi organlari ishga tushadi. Endi o'quvchi ma'lumotni bir taraflama emas, balki turli tomonlardan qabul qilib oladi. Jumladan, ko'rib va tinglab hatto yozib ham ma'lumotni qabul qilib oladi. Turli xil grafik tasvirlar o'quvchilarning diqqatini ham bir yerga jamlab berishga yordam beradi. Multimedia vositalari o'quvchining diqqatini oshirishi orqali lingvistik bilimlarini shakllantirishga yordam bersa, undagi ovozli, rang tasvirli, jonlantirilgan tasvirlar o'quvchilarning nutqiy ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

1-rasm



Darsliklarda aks etishi: Demak, bugungi zamonaviy olamda raqamli texnologiyalar jadal sur'atda rivojlanmoqda ekan, ona tili ta'limida ham ushbu vositalardan foydalanish o'rinli bo'ladi. Ham o'quvchining mediasavodxonligini oshirsa, ham nutqiy ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Ona tili darslarida nima uchun multimedia vositalari va interfaol dasturlardan foydalanish kerak, degan savolga hech ikkilanmay texnologiya rivojlanayotgan davrda ushu imkoniyatlardan foydalanish zarur deb aytish mumkin bo'ladi. Barcha fanlarni o'qib o'rgatishda birlamchi vazifani ona tili fani o'tab berar ekan, o'quvchilarning mediasavodxonligini oshirishda ham, shubhasiz, ona tilining o'rni beqiyosdir. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqqan holda bugungi kunda yaratilayotgan fan darsliklari ham buning tasdig'i bo'lib xizmat qilmoqda.

Jumladan, 5-sinf "Ona tili" darsligida berilgan bir qancha topshiriqlarda aynan raqamli texnologiyalardan foydalanish kerakligi belgilangan. Bundan tashqari darslikda berilgan tinglab tushunish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan turli xildagi topshiriqlar multimedia vositalarining ona tili ta'limidagi xizmatidan dalolat bermoqda. Darslikda aks etgan mavzularni multimedia



vositalaridan foydalangan holda yoritib berilganda dars jarayoni ham qiziqarli ham samarali bo'lishi shubhasiz. Uyga beriladigan turli xildagi loyiha ishi tayyorlash topshiriqlari nafaqat sinfda, balki uyda ham o'quvchi ushbu vositalardan foydalanishi lozimligini taqozo etmoqda. Albatta, bu jarayonda o'quvchilar ota-onalar nazoratida bo'lmog'i lozim.

Shuni ta'kidlash joizki, multimedia vositalari orqali tasvirlangan diagrammalar va chizmalar, turli xildagi tasvirlar ta'lim sifatini bir muncha oshirishi, shubhasiz. Chunki o'quvchi ushbu tasvirlarni turli xil ranglarda ko'rib farqlay biladilar. Ular o'zlari ko'rganlari asosida xulosa chiqarishlari va tahlil qila olish imkoniyatlariga ega bo'ladilar. O'qituvchi dars davomida ushbu vositalardan o'quvchilarning istalgan nutqiy ko'nikmalarini shakllantirish uchun foydalanishi mumkin. Masalan, 10-sinf "Ona tili" darsligida ko'pchilikning e'tiroziga sabab bo'lgan "Muhabbat" nomli nutqiy mavzuga diqqat qilaylik.

Topshiriq. Quyidagi savollarga javob bering va matn bilan tanishib chiqing.[2:6]

1. Siz muhabbatni qanday tushunasiz?
2. Bu so'zni eshitganingiz zahoti xayolingizda kim yoki nima gavdalanadi?
3. O'zi muhabbatga ishonasizmi?

Ushbu mavzuni o'qitish bo'yicha 10-sinflarda tadqiqot ishi sifatida tajriba-sinov darslari olib borildi. 10- "A" sinfga oddiy an'anaviy shaklda nutqiy mavzuga olib kiruvchi savollar bilan boshlagan holda dars o'tildi. O'quvchilar dastlab e'tiroz bildirishdi, biroz uyalishdi. Aslida muhabbat har bir insonning o'ziga, yaqinlariga, do'stiga, ota-onasiga, Vataniga ekani tushuntirilgach, ular darsda faol ishtrok eta oldilar. Dars jarayonida o'quvchilar o'rganish lozim bo'lgan nazariy ma'lumotlarni o'zlashtirish samaradorligi ham nisbatan pastligi sezildi.

10-"B" sinfda esa dastlab o'qituvchi oldindan tayyorlab kelgan videolavha qo'yib berildi. Dastlab "Ota" nomli, so'ngra "Mehr" nomli animatsion videolavha qoyib berildi. Ushbu videolavhalar ovozsiz bo'lib, o'quvchilarning ko'rib tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. O'quvchilar odatda videolavhalarni ham ko'rib, ham eshitib qabul qilar edi. Darsda berilgan animatsion filmlar ovozsiz bo'lib, o'quvchi uni ko'ribgina tahlil qila oladi. So'ngra mavzuga olib kiruvchi savollar berildi. Berilgan matndan so'ng esa O'tkir Hoshimovning "Tarnov" hikoyasining audiomatni va sun'iy intellekt yordamida hikoya asosida ishlangan rasm o'quvchilarga taqdim etildi. Ushbu audiomatn o'quvchilarning tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, bunda o'quvchilar audiomatni tinglab tahlil qila oladilar. ChatGPT orqali ishlangan rasm esa ularning tasavvurlarini yanada yorqinroq aks ettirishga xizmat qiladi.

Darsda o'zlashtirishi lozim bo'lgan matn turlari va nutq uslublari haqidagi nazariy ma'lumotlar va ularning bir-biridan farqi videolavhalar orqali namoyish qilindi. Matn turlarini bir-biridan farqlab olishi uchun "Meni top" metodidan foydalanildi. Bunda Canva.com dasturida tayyorlangan rasimli matn taqdim



etildi. O'quvchilar rasm o'rniga munosib so'zlarni qo'yib matn tuzishadi va matnning qaysi turiga mansub ekanini topishligi talab etiladi. Bunda o'quvchidan rasm va so'z orasidagi bog'liqlikni tahlil qila olishi, ularni yaxlit bir chiziqda birlashtira olishi talab etiladi. O'quvchilar o'zlari tuzgan matnlarini og'zaki shaklda bayon qilib beradilar. Mavzuni mustahkamlash uchun "Kahoot" dasturi orqali test ishlendi. O'quvchilar o'zlashtirgan bilimlarini o'zlari tekshirib o'zlarini o'zlari baholay oldilar.

Natija shuni ko'rsatdiki, "A" sinfga qaraganda "B" sinf mavzuni hech qanday qiyinchiliksiz, e'tirozlarsiz qisqa vaqt ichida o'zlashtirib oldilar. Mavzuni mustahkamlash uchun "Kahoot" dasturi orqali test ishlendi. O'quvchilar o'zlashtirgan bilimlarini o'zlari tekshirib o'zlarini o'zlari baholay oldilar.

10-sinflarda o'tkazilgan tajriba sinov dars natijasi

Sinf	Darsda qatnashgan o'quvchilar	O'zlashtirish darajasi yuqori	O'zlashtirish darajasi past
10-"A"	24	10 / 42%	14 / 58%
10-"B"	24	17 / 71%	7 / 29%

Tajriba-sinov darsidan qilingan xulosa shu bo'ldiki, multimedia vositalari va interfaol dasturlardan foydalanib dars o'tilganda darsning samaradorligi 29% ga oshgan va bitta dars orqali o'quvchilarning faqat bitta ko'nikmasi emas, balki bir nechta ko'nikmasini shakllantirishga xizmat qilgan. Nafaqat o'qib va tinglab tushunish, hatto ko'rib tushunish ko'nikmasi ham shakllangan. Ko'rib tushunishning ahamiyati shundaki, ayrim narsalarni tinglab, eshitib emas, balki faqat ko'ribgina anglash mumkin. Aynan shu vaziyatda o'quvchiga ko'rish ko'nikmasining shakllangani yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. Raqamlashtirish davrida o'zbek tilini davlat tili va xorijiy til sifatida o'qitish masalalari:

mahalliy va xorijiy tajriba / -Toshkent, 2024. - 771 b.

2. Ona tili 10 [Matn]: 10-sinf uchun darslik / B. Mengliyev va b. - Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. -224 b.



<i>MASALASI</i>	
<i>Abdiraimova Khusnobod Samat kizi. KOGNITIV VA METAKOGNITIV O'QIB TUSHUNISH STRATEGIYALARI</i>	597
<i>Xonzodabegim Abdiyeva Turdiboy qizi. ONA TILINI O'QITISHDA FOTO MATERIALLARDAN FOYDALANISH</i>	603
<i>Abduqaxxorova Durdona Farxod qizi. SO'ZNING SEMANTIK TARKIBIDA ASOS VA AFFIKSLARNI O'QITISH USULLARI</i>	605
<i>Ahmadjonova Umida Ikromjon qizi. ONA TILI TA'LIMIDA O'QISH SAVODXONLIGINI OSHIRUVCHI O'QUV TOPSHIRIQLAR TAHLILI</i>	614
<i>Askarova Mashxura Akmal qizi. NOFILOLOGIK YO'NALISHLARDA DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA O'ZBEK TILINI O'QITISH</i>	620
<i>Atamurodova Gulnora Shermurodovna. TALAFFUZI QIYIN BO'LGAN AYRIM NUTQ TOVUSHLARI USTIDA ISHLASH METODIKASI</i>	626
<i>Baxtiyorova Xusnora Muzaffar qizi. IJOD MAKTABLARIDA YOZMA NUTQ KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISHGA OID AMALIY TOPSHIRIQLAR TAVSIFI</i>	630
<i>Avezova Dilnura Bayramovna. ESSE YOZISHDA YO'L QO'YILADIGAN XATOLAR VA ULAR USTIDA ISHLASH USULLARI</i>	635
<i>Axmadjanova Malika Maxmudjon qizi. O'ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O'QITISHDA LUG'AT BOYLIGINI SHAKLLANTIRISHNING MAVJUD HOLATI</i>	638
<i>Davronova Zebiniso Bahtiyor qizi. SEZGI A'ZOLARI ASOSIDA TASVIRIY MATN YARATISH JARAYONI TAHLILI</i>	646
<i>Ergasheva Lobarxon O'tkir qizi. TIL O'QITISH VA O'RGANISHDA AUTENTIK MATN VA UNDAN FOYDALANISHDAGI AFZALLIK VA KAMCHILIKLAR</i>	651
<i>Hamroyev Umid Mustafoyevich. O'QUVCHILARDA KOGNITIV KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH</i>	656
<i>Iskandarova Noila Muxtor qizi. PUBLITSISTIK USLUBNI O'RGANISH ORQALI O'QUVCHILARNING TANQIDIY VA IJODIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH</i>	661
<i>Israilova Z. XORIJLIK TALABALARINING O'ZBEK TILIDA SO'Z O'ZLASHTIRISH BOSQICHLARI</i>	664
<i>Komilova Lola Nosillojevna. ONA TILI TA'LIMIDA DARAJALI TESTLAR</i>	670
<i>Axmadaliyeva Ozoda Iskandar qizi. 10-SINF O'QUVCHILARINING OG'ZAKI NUTQINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI</i>	677
<i>Madina Axmadjanova Mahmudjon qizi. MUSTAQIL SO'Z TURKUMLARINI GRAMMATIK MINIMUM ASOSIDA O'QITISH TAMOIYILLARI</i>	682
<i>Komilov Xusanboy Bahodir o'g'li. ONA TILINI O'QITISHDA INTERFAOL DASTURLAR VA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISH</i>	689
<i>Madvaliyev Orifjon Tolibovich. TAHRIR TA'LIMINI TASHKIL ETISH: DASTLABKI QADAMLAR</i>	693

